



"TUSHDA KECHGAN UMRLAR" ROMANIDA IFODALANGAN DISKURSIV MARKERLARNING PRAGMATIK TAHLILI

Marjona Orifova

*Samdu Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti 3-bosqich talabasi*

U. Rashidova

Ilmiy rahbar: dots.

Annotatsiya: *Mazkur maqola tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan bo'lgan pragmlingvistika sohasiga bag'ishlangan bo'lib, so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan diskursiv markerlarning pragmatikasi ochib beriladi. O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanidan misollar keltiriladi va tahlilga tortiladi. Shuningdek, diskursiv markerlarning ayrim shakllari necha o'rinda ishtirok etgani ham sanab o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Pragmatika, diskurs, diskursiv marker, diskursiv yuklama, ijobiy, salbiy, emotsional-ekspressiv ma'no.*

So'nggi yillarda tilshunoslikda "diskursiv markerlar" termini ko'p ishlatilmoqda. Diskursiv markerlar- bu tilning og'zaki yoki yozma shaklidagi gaplar, fikrlar yoki xabarlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan, ularni bog'laydigan so'zlar yoki ifodalardir. Ular muloqotda fikrlarni, munosabatlarni, vaqtni yoki boshqa kontekstual ma'nolarni aniqlashda yordam beradi. Diskursiv markerlar nutqiy jarayonda gaplar orasidagi bog'lanishni ta'minlovchi, muloqotni boshqaruvchi va tinglovchiga qo'shimcha ma'lumot beruvchi birliklar sifatida ta'riflanadi. Pragmlingvistikaga oid tadqiqotlarda diskursiv marker, pragmatik marker tushunchalari kuzatiladi. Bunday birliklar nutqiy harakatga diskursiv xususiyatlarni berish uchun xizmat qiladi. O'zbek tilshunosligida A.Pardaev mazkur birliklarning diskurs jarayonidagi faolligini va nutqni jonlantirishini hisobga olib diskursiv yuklamalar deyishni ma'qul ko'radi.⁶⁴ Bunday birliklar nutq jarayonidagi so'zlovchining ham, tinglovchining ham nutqida tez-tez qo'llanilib, muloqotni jonli va tabiiy bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli ko'plab mustaqil so'zlar ham bu jarayonga "tortiladi" va semantikasiga qo'shimcha ma'no yuklash orqali unda yordamchilik xususiyati shakllantiriladi, deb hisoblaydi. Diskursiv yuklamaning tanlanishida nutq vaziyati ham alohida o'rin tutishini, so'zlovchi yoki tinglovchi ichki ruhiyatini, kechinmalarini, borliqqa yoki ifodalanayotgan voqelikka munosabatini ifodalashda alohida subyektiv modallik mazmuni bag'ishlashini va kishilar o'rtasidagi munosabatlarning jozibadorligini ta'minlashini, matnga qo'shimcha

⁶⁴ Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. –Тошкент: Фан, 2013. – Б. 43.



emotsionallik ottenkalarini kiritishini ta'kidlaydi. Biz diskursiv marker terminini qo'llashni o'rinli deb topdik. Chunki bunday so'z va birikmalar yuklamalardan farq qiladi. Diskursiv markerlarning aksariyati turli so'z turkumlariga mansub bo'lib, nutq jarayonida o'zining asl semantik mohiyatiga ko'ra qo'llanmaydi, o'zi birikkan so'z yoki birikmaga subyektiv munosabat yoki jonli so'zlashuv ruhini beradi.⁶⁵ Diskursiv markerlar pragmatik jihatdan o'ta faol bo'lib, so'zlovchining yoki matn muallifining nutq vaziyatiga o'ziga xos munosabatini bildiradi. Shu bilan birga, bu vositalar matnga ko'proq emotsional-ekspressiv ma'no bo'yoqdorligini bag'ishlaydi. O'tkir Hoshimov nasriy asarlarida ham diskursiv markerlar faol qo'llanadi. Jumladan, o'lgur, tushmagur, tushgur, qurg'ur, o'lsin, ishqilib, kelinglar, kelib-kelib, deyman, xo'sh, aytmoqchi, aylanay, o'rgilay, o'rgilib ketay, qaniydi, qani, qo'y, yo'g'-e, u yoqda tursin, quling o'rgilsin, boringchi, qo'yingchi, o'lib ketay agar, qirg'in kelgur, baraka topgur kabilar. Tushgur, tushmagur, qurg'ur, qurmag'ur, quling o'rgilsin, aylanay, o'rgilay diskursiv markerlari ijobiy munosabatni ifodalab, matnga jonli so'zlashuvga yaqinlik, soddalik ruhini beradi. Masalan: – Chehram yorishib, tishimning og'rig'i ham esimdan chiqib ketdi. Voy Shahnoz tushmagur-ey! Voy shum-ey! (Tushda kechgan umrlar 52-bet). O'TILda "TUSHGUR" so'zi o'zidan oldingi so'z bildirgan shaxsni erkalash, suyish yoki yengil koyish ma'nosini anglatadi.(9; 142) "ShUM"so'zi esa Yaramas qiliqlar qiladigan, o'ta sho'x ma'nolarini ifodalaydi. Uyqu kelsa, qani! Xayol ming ko'chaga olib kiradi. Uyimiz ko'z o'ngimga keldi. Oyim... Dadam... Shahnoza... O'zimizning anhor... O'zimizning na'matak...(O'sha asar, 68-bet); — JEKda ishlamiyman, xolang o'rgilsin, uborshisaman, ko'cha supuraman. Ikki «do'm»ni ajratib bergan (O'sha asar, 42-bet); O'TILda AYLANAY 1 Aylanmoq fl. 1-sh. buyr. m. 2 und. s. Sadag'ang ketay, qurbon bo'lay; o'rgilay (erkalash, suyish va sh.k. munosabatni bildiradi). Erkalatish yoki hurmat ifodalovchi murojaat shakli.(6; 63) — Grajdanka To'laganova Qurbonoy siz bo'lasizmi? —Ha, men bo'laman. Nima gunoh qildim, xolang aylansin — O'tiring! — O'zing asra, Xudoyim...(O'sha asar, 62-bet); O'TILda BARAKA TOP (ko'r) «Kam bo'lma», «omadingni bersin» ma'nosida aytiladigan olqish, undov. Bor baraka, bor baraka top, baraka de(ng), baraka qil(ing).Ba'zan oldi-sotdi savdosida «so'ralayotgan narxga ho'p deng ma'nosida ishlatiladigan ibora.(6; 163)— Soat aka! To'lagan akam tuhmatga qolganini boshqalar bilmasa, siz bilasiz-ku, baraka topgur! «Soat aka» bir zum o'ylanib turdi-da, charchab ketgandek xo'rsindi: — Bolam yetim bo'lmasin, desang, xatni top! (O'sha asar, 71-bet).

Subyekt ba'zan o'z g'azabini, noroziligini yumshoqroq, madaniyroq shaklda ifodalash uchun qurg'ur, tushmagur diskursiv markerlaridan ham foydalanadi. O'tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asaridagi quyidagi so'z birikmalari shu maqsadda qo'llangan: — Yo'q... Aksiga olib, chiroq o'lgur o'chib qolsa degin... Uyingga bug'doy to'lgur nevaralarim qorong'idan qo'rqadi. Chiroq hadeganda

⁶⁵ Қозоқова Н, Бадий матн прагматикаси. – Наманган: Ғафур Ғулом нашриёти, 2022. – Б. 63.



yonavermadi. Ikkalasi xarxasha qilishga tushdi. Uyda sham qurmagur tamom bo'lgan ekan (O'sha asar, 41-bet); Manavi baqaterak degani o'lgur yomon. Bahorda gullaydimi, nima balo, hammayoqni popiltiriq bosib ketadi. Osmondan qordek yog'adi-ya, qirg'in kelgur! Suv sepsang, yerga yopishib qoladi (O'sha asar, 3-bet). O'TILda QIRG'IN KELMOQ so'zi ko'plab o'lish, qirilish, o'lat degan ma'noni anglatadi.(9; 304). Ushbu matnda esa qarg'ish so'z sifatida kelgan. Shuningdek, kontekstda qahramonning haddan ortiq noroziligini ifodalash uchun 3ta diskursiv markerdan foydalanilgan.

Diskursiv markerlar nutqiy akt mazmunini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Masalan: – Voy o'lmasam! Qayoqdan tanirkanman? Etdim-ku, tuman edi. O'n qadam narini ko'rib bo'lmasdi. — Ayting-chi, Shomatovni oxirgi marta qachon ko'rgan edingiz? Ya'ni o'lmasdan oldin(Tushda kechgan umrlar 64-bet) Mazkur diskursda o'lmoq fe'li ishtirok etgan bo'lib, leksik ma'noga ega emas, diskursiv marker vazifasini bajarmoqda. Dastlabki nutqiy aktda ajablanish va e'tiroz ma'nolarini ifodalagan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, matnda diskursiv markerlarning ifodalanishi suhbatning jonli, tabiiy bo'lishini ta'minlaydi. Subyekt ba'zida o'zining g'azab, nafrat, alamini yumshoqroq ifodalashda ishlatiladi. Asarda ular bir necha o'rinda qo'llanilgan. Masalan, "aylanay"so'zi asarda 6marta, "tushmagur" so'zi 5marta,"qurg'ur" so'zi 1marta,"qirg'in kelgur" 1marta,"o'lmasam" so'zi 6marta, "o'lgur" so'zi 5marta, "qani" so'zi 12marta,"baraka topgur" 6marta ishtirok etgan. Ushbu diskursiv markerlardan qani so'zi eng faol bo'lib, nofaol qirg'in kelgur so'zi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. –Тошкент: Фан, 2013. – Б. 43.
2. Қозоқова Н, Бадий матн прагматикаси. – Наманган: Фафур Фулом нашриёти, 2022. – 136 б.
3. Ҳакимов М, Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. -Т.: Академнашр, 2013. -176б.
4. Abdullayeva M, Diskursiv markerlarning o'zbek tilshunosligida tutgan o'rni//Ilm-fan va innovatsiya respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2026. 26.01.22-24b
5. O'tkir Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. -Т.:F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.-142б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, -Т. :Ўзбекистон миллий энциклопедияси, I-жилд, 2006. -678б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, -Т. :Ўзбекистон миллий энциклопедияси, II-жилд, 2007.-687б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, -Т. :Ўзбекистон миллий энциклопедияси, III-жилд, 2007. -687б



9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, -Т. :Ўзбекистон миллий энциклопедияси, V-жилд, 2008-606б.